

ЎТМИШГА НАЗАР

6 ЖИЛД, 2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 6, НОМЕР 2

LOOK TO THE PAST
VOLUME 6, ISSUE 2



ТОШКЕНТ-2023

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Раҳбар Ҳамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобоҷонова Дијором Бобоҷонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Аширов Адҳам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзРФА Тарих институти

Аззамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзРФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қызлар давлат педагогика
университети

Ульяева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ким - технология институти

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Гоффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қарши мұхандислик-иқтисодиёт
институти

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боҳодир Жӯраевич
тарих фанлари доктори, профессор
Қарши давлат университети

Махкамова Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент аҳборот технологиялари
университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозогистон дипломатия академияси

Рахмонкулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори, профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давлаталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмайлова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Дөгистон мустақил университети

Иноятова Диларрам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc)
Ўзбекистон Миллий университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
Тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Ўзбекистон жаҳон
тиллари университети

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Севара Пулатова ТАРИХИЙ ТАДКИҚОТ МЕТОДЛАРИ ҲАҚИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР (Фарбий Европа ва АҚШ тарихшунослиги методлари асосида).....	4
2. Дилафруз Атамуратова ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИ РИВОЖЛАНИШНИ ТАЪМИНЛАШДА ЁШЛАРГА ОИД ДАВЛАТ СИЁСАТИНИНГ МОҲИЯТИ.....	10
3. Норпулат Аҳмеджанов ЖИЗЗАХ ВИЛОЯТИДАГИ ТАРИХИЙ-МАДАНИЙ ЁДГОРЛИКЛАРНИНГ ҮРГАНИЛИШИ.....	16
4. С.И. Габриэльян XIX АСР ОХИРИ КОНСЕРВАТОРЛАР ДАВРИ ЭРОНИДА АНГЛИЯ СИЁСАТИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР.....	21
5. Шахноза Касимова МУЗЕЙ КОММУНИКАЦИЯСИ БАДИЙ ВА ЭСТЕТИК РИВОЖЛАНИШНИНГ УСЛУБИЙ АСОСИ СИФАТИДА.....	31
6. Қобулжон Насритдинов СУВ ХЎЖАЛИГИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ ВА ПАХТА ЯККАҲОКИМЛИГИ СИЁСАТИГА БЎЙИНСУНДИРИЛИШИ ТАРИХИДАН (ФАРГОНА ВОДИЙСИ МИСОЛИДА).....	36
7. Эркин Раджапов ТУРКИСТОН МИНТАҚАСИДА СОВЕТ ҲОКИМИЯТИНИНГ ҲАРБИЙ СИЁСАТИ ВА “МУСУЛМОН ҲАРБИЙ ҚИСМЛАРИ”.....	44
8. Гавхар Турсунова РОССИЯ ИМПЕРИЯСИНИНГ СИРДАРЁ ВИЛОЯТИГА АҲОЛИНИ КЎЧИРИШ СИЁСАТИ ЖАРАЁНИДА МУСТАМЛАКА МАъМУРИЯТИ ОЛИБ БОРГАН МАъМУРИЙ-СИЁСИЙ БОШҚАРУВ ТИЗИМИ (XIX АСРНИНГ ИККИНЧИ ЯРМИ – XX АСР БОШЛАРИ).....	57
9. Nodira Shermatova ABU NASR FAROBIY FALSAFASIDA BILISH KATEGORIYALAR.....	70
10. Fotima Shirinova, Zumrat Kasimova MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA MA'NAVIY – MADANIY TARAQQIYOT.....	76
11. Бахтиёр Халмуратов ФАРГОНА ВОДИЙСИДА ҲУНАРМАНДЧИЛИК: ЭТНИК ВА ҲУДУДИЙ ХУСУСИЯТЛАР.....	82
12. Xurshid Egamqulov XALQ XIZMATIGA BAHSHIDA UMR (Jizzax “Milliy ittihod” sho‘basi a’zosi Orifjon Olimjonov haqida).....	86



ISSN: 2181-9599
www.tadqiqot.uz

JOURNAL OF

LOOK TO THE PAST

ЎТМИШГА НАЗАР | ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

Fotima Nasirovna Shirinova,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Gumanitar fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi

Zumrat Sabirjanovna Kasimova,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Gumanitar fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi

MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA MA'NAVIY – MADANIY TARAQQIYOT

For citation: Fotima N. Shirinova, Zumrat S. Kasimova, SPIRITUAL AND CULTURAL DEVELOPMENT UZBEKISTAN IN THE YEARS OF INDEPENDENCE. Look to the past. 2023, vol. 6, issue 2, pp.76-81

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.7680664>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola mualliflari O'zbekiston mustaqillikka erisgandan so'ng xalqimizning ma'naviy-madaniy taraqqiyotdagi erishgan yutuqlari haqida ma'lumot berishgan. Milliy-ma'naviy merosga yangicha munosabat bevosita O'zbekistonning mustaqillikka erishishi bilan bo'g'liq. Tabiiyki, ma'naviy-ruhiy poklanish, qadriyatlarning tiklanishi bir kunda bo'ladigan jarayon emas, balki u bizdan muntazam ravishda izchillik bilan ish olib borishimizni talab etadi. Mustaqillik yillarida eng avvalo milliy ma'naviyatimizga, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga buyuk hissa qo'shgan bobolarimiz – Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband, Xo'ja Ahmad Yassaviy, Al-Xorazmiy, Al-Farobiy, Ibn Sino, Al-Beruniy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa ko'plab ajdodlarimizning milliy va ma'naviy merosi xalqimizga qaytarildi, tavallud topgan kunlari jahonda va mamlakatimizda nishonlanib, ruhlari shod etildi va asarlari nashr etildi hamda qadamjolari obod qilindi.

Madaniy-ma'naviy rivojlanishning eng muhim poydevori – ta'lim tizimidir. Ushbu maqolada mustaqillik yillarida ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar va ularning mohiyati ohib berilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviy qadriyatlar, tarixiy meros, diniy qadriyatlar, jahon sivilizatsiyasi, ma'rifat, kadrlar tayyorlash milliy dastur, oliy ta'lim, xalqaro hamjamiyat, isloh etish.

Фотима Насировна Ширинова,

старший преподаватель кафедры Гуманитарные науки
Ташкентский университет информационных технологий

имени Мухаммада аль-Хорезми

Зумрат Сабиржоновна Касимова,

старший преподаватель кафедры Гуманитарные науки
Ташкентский университет информационных технологий

ДУХОВНО-КУЛЬТУРНОЕ РАЗВИТИЕ УЗБЕКИСТАНА В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

АННОТАЦИЯ

Авторы данной статьи представили информацию о достижениях нашего народа в духовном и культурном развитии после обретения Узбекистаном независимости. Новое отношение к национальному и духовному наследию напрямую связано с независимостью Узбекистана. Естественно, духовное и духовное очищение, восстановление ценностей — это не процесс, происходящий за один день, но он требует от нас регулярной и последовательной работы. В годы независимости наши деды, внесшие большой вклад в нашу национальную духовность и развитие мировой цивилизации — Имам Бухари, Имам Термизи, Бахауддин Накшбанд, Ходжа Ахмед Яссави, Аль-Хоразми, Аль-Фараби, Ибн Сина, Аль Беруни, Национальное и духовное наследие Мирзы Улугбека, Алишера Навои, Захириддина Мухаммада Бабура и многих других предков было возвращено нашему народу, дни их рождения отмечались в мире и в нашей стране, радовались их души, издавались их труды и памятники были благоустроены.

Важнейшей основой культурного и духовного развития является система образования. В данной статье описаны реформы, осуществленные в сфере образования за годы независимости и их сущность.

Ключевые слова: моральные ценности, историческое наследие; Религиозные ценности; мировая цивилизация, просвещение, национальная программа подготовки кадров, высшее образование, международное сообщество, реформа.

Fotima N. Shirinova,
Senior Lecturer of the Department of Humanities Studies,
Tashkent University of Information Technologies
named after Muhammad al-Khwarizmi

Zumrat S. Kasimova,
Senior Lecturer of the Department of Humanities Studies,
Tashkent University of Information Technologies
named after Muhammad al-Khwarizmi

SPIRITUAL AND CULTURAL DEVELOPMENT UZBEKISTAN IN THE YEARS OF INDEPENDENCE

ABSTRACT

The authors of this article provided information about the achievements of our people in the spiritual and cultural development after the independence of Uzbekistan. A new attitude to the national and spiritual heritage is directly related to the independence of Uzbekistan. Naturally, spiritual and spiritual purification, restoration of values is not a process that happens in one day, but it requires us to work regularly and consistently. In the years of independence, our grandfathers who made a great contribution to our national spirituality and the development of world civilization - Imam Bukhari, Imam Termizi, Bahauddin Naqshband, Khoja Ahmed Yassavi, Al-Khorazmi, Al-Farabi, Ibn Sina, Al-Beruni, Mirza The national and spiritual heritage of Ulugbek, Alisher Navoi, Zahiriddin Muhammad Babur and many other ancestors was returned to our people, their birthdays were celebrated in the world and in our country, their souls were gladdened, their works were published and their monuments were beautified.

The most important foundation of cultural and spiritual development is the education system. This article describes the reforms implemented in the field of education during the years of independence and their essence.

Index Terms: moral values; historical heritage; religious values; world civilization, enlightenment, national program of personnel training, higher education, international community, reform;

1.Dolzarbliги:

Ota-bobolarimizning asrlar davomida to‘plagan hayotiy tajribalari, diniy, axloqiy, ilmiy qarashlarini sinchiklab o‘rganish, ulardan O‘zbekiston mustaqilligini mustahkamlash, mamlakatimizni buyuk davlatlar qatoriga ko‘tarishda, xalq farovonligini yuksaltirishda foydalanish muqaddas vazifadir. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “...Yoshlarni vatanparvarlik, milliy iftixor ruxida tarbiyalash, buning uchun tarixni yaxshi o‘rgatish, bu yonalishdagi ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish muhimligi ta’kidlandi.

Ilm-fan va talim-tarbiya masalasi nafaqat ma’naviy, siyosiy va iqtisodiy taraqqiyot omili, balki xalqaro munosabatlar vositasi ham xisoblanadi. Ushbu maqola yoshlani ma’naviy-madaniy, ilmiy faoliyatini rivojlantirish, ularda vatanparvarlik, jasurlik, tarixni o‘rganishga intilish, ilm-fan taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘sish xususiyatlarini oshiradi.

2.Metodlar va o‘rganilganlik darajasi:

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar-tarixiylik, qiyosiy mantiqiy tahlil, ketma ketlik, xolislik tamoillari asosida yozilgan bo‘lib, unda O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng mamlakatimizda ma’naviy qadriyatlarning tiklanishi, ilm-fan soxasidagi islohatlar haqida ma’lumotlar berilgan.

Bu davr tarixi xalqimizning milliy qadriyatlarimiz, an’analaramiz va urf odatlarimiz qayta tiklanishi xaqida chuqur ma’lumot beradi. Olimlar, tadqiqotchilar bu davr haqida ko‘pgina ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan.

3.Tadqiqot natijaları:

Milliy-ma’naviy merosga yangicha munosabat bevosita O‘zbekistonning mustaqilikk erishishi bilan bo‘g‘liq. Tabiiyki, ma’naviy-ruhiy poklanish, qadriyatlarning tiklanishi bir kunda bo‘ladigan jarayon emas, balki u bizdan muntazam ravishda izchillik bilan ish olib borishimizni talab etadi. Mustaqillik yillarda eng avvalo milliy ma’naviyatimizga, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga buyuk hissa qo‘sghan bobolarimiz – Imom Buxoriy, Imom Termizi, Bahouddin Naqshband, Xo‘ja Ahmad Yassaviy, Al-Xorazmiy, Al-Farobi, Ibn Sino, Al-Beruniy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa ko‘plab ajdodlarimizning milliy va ma’naviy merosi xalqimizga qaytarildi, tavallud topgan kunlari jahonda va mamlakatimizda nishonlanib, ruhlari shod etildi va asarlari nashr etildi hamda qadamjolari obod qilindi.

Tarixiy tafakkurning rivojlanishi ma’rifat asosida, ma’rifatli bo‘lish negizida sodir bo‘ladi. 1991-yili Alisher Navoiy tavalludining 550-yilligi keng nishonlandi. Bu to‘yga respublikada katta tayyorgarlik ko‘rildi va u xalqning katta madaniyat bayramiga aylandi. Uning yigirma jildlik mukammal asarlar to‘plami nashr etila boshlandi. Yubiley oldidan Alisher Navoiyning buyuk siyimosi ifoda etilgan sahna asarlari, kinofilmlar yaratildi. Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti ta’sis etildi. Adabiyot institutiga Alisher Navoiy nomi berildi. Mamlakat poytaxti Toshkentda ulug‘ bobomizning muhtasham haykali qo‘yildiki, bu joy xalqning muqaddas ziyoratgohiga aylandi. Navoiy haykali Komsomol ko‘li deb nomlangan istirohat bog‘iga o‘rnatildi va bog‘ Alisher Navoiy nomidagi milliy bog‘ deb ataladigan bo‘ldi.

1994-yilni hukumat qarori bilan “Ulug‘bek yili” deb e’lon qilinishi, uning 600-yilligini O‘zbekistonda va jahon miqyosida, xususan, YUNESKO qarorgohi Parijda keng nishonlanishi ham buyuk allomalar qoldirgan meros umuminsoniy qadriyatga aylanganligi nishonasidir. 1996-yil Amir Temur tavalludining 660-yilligi ham keng miqyosda nishonlandi. “Temur tuzuklari” bir necha tilda chop etildi. O’sha davr tarixiy madaniy yodgorliklarini tiklab, yozma adabiyotlar ilmiy muomalaga kiritildi. Juda qisqa fursatda, Toshkentda bobokalonimizning dunyoviy sha’ni va shavkatiga mos keladigan Amir Temur va temuriylar davri tarixi muzeyi qurildi.

Xalqimizning azaliy qadriyati, sevimli bayrami hisoblanmish “Navro‘z” bayramini xalqimizga qaytib berilishi mamlakat tarixida katta voqeа bo‘ldi. 1991-yildan boshlab respublikada 21-mart – Navro‘z umumxalq bayrami sifatida nishonlanadigan bo‘ldi. Qadimiy xalq bayrami –

Navro‘zning tiklanishini respublikamizning butun aholisi mammuniyat bilan ma’qullab, ko‘tarinki ruhda kutib oldi va hozir ham ardoqli bayram sifatida nishonlamoqda.

Mamlakatda Islom dini omilidan unumli foydalanish, uning boy ma’naviy va madaniy qadriyat sifatidagi imkoniyatlarini kengaytirish choralari ko‘rildi. Jumladan, 1992-yilda O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasи huzurida din ishlari bo‘yicha qo‘mita tashkil etildi. 1992-yil 27-martda O‘zbekiston Prezidentining “Ro‘za hayitini dam olish kuni, deb e’lon qilish to‘g‘risida” farmoniga ko‘ra, musulmonlar hayotidagi qutlug‘ sanalar – Qurban va Ramazon hayit kunlarini doimiy ravishda bayram qilish va ularni dam olish kunlari, deb e’lon qilinishi ham aynan xalqimiz ko‘nglidagi ish bo‘ldi. Mustaqillik yillarda “Imom Abu Mansur al-Moturidiy tavalludining 1130 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi, “Burhoniddin al-Marg‘inoniy tavalludining hijriy sana bo‘yicha 910 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari fikrimizning yaqqol isbotidir. 2003-yili esa naqshbandiya tariqatining asoschisi Abduxoliq G‘ijduvoniy tavalludining 900 yilligi keng nishonlanishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Madaniy-ma’naviy rivojlanishning eng muhim poydevori – ta’lim tizimidir. Ijtimoiy-iqtisodiy jabhalarda kechayotgan islohotlar muvaffaqiyati, yurt taraqqiyoti yuqori bilim va malakaga ega mutaxassislarga bog‘liq. Keyingi yillarda ta’lim tizimida kechayotgan tub islohotlarning pirovard maqsadi ham ayni ezgu intilishlarni ko‘zlashi bilan ahamiyatli bo‘lmoqda. O‘zbekistonda barcha jinsi, tili, yoshi, irqiy, milliy mansubligi, e’tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat turi, ijtimoiy mavqeyi, turar joyidan qat’i nazar, har kimga bilim olishda teng huquqlar kafolatlandi.

O‘zbekistonda ta’lim sohasidagi siyosati 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi qonun hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturida o‘z aksini topdi. Ta’lim tizimi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni asosida maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus ta’lim, oliy ta’lim, oliy ta’limdan keyingi ta’lim, malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta’lim shakllaridan iborat. 1996–1997-o‘quv yildan boshlab maktablarning birinchi sinflarida o‘qish yangi alifboda olib borildi. Yangi imlo, alifboda o‘qitish uchun zarur dastur, qo‘llanma va darsliklar yaratildi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi 3 bosqichdagi islohotlar asosida amalga oshirildi. I bosqich – 1997–2001-yillarda dasturni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan huquqiy-me’yoriy, ilmiy-metodik, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratildi. II bosqich – 2001–2005-yillarni o‘z ichiga olib, milliy dastur keng miqyosda joriy etildi. III bosqich – 2005-yildan bugungi kungacha. Bu bosqichda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi natijasida erishilgan natijalar, to‘plangan tajribalar umumlashtirilib, shu asosda yurtimizda ta’lim tizimi takomillashtirilib borildi.

1997-yildan boshlab hozirga qadar 1400 dan ortiq kasb-hunar kolleji, 200 ga yaqin akademik litsey bunyod etildi. Ular sohalar bo‘yicha mutasaddi tashkilotlar va oliy ta’lim muassasalariga ham biriktirilishi tufayli bu bosqichda o‘quv jarayoni samarali tashkil etilib, kollej bitiruvchilarini ish bilan ta’minlanishiga e’tibor qaratilganiga qaramay, bu borada qoniqarli natijaga erishilmadi.

2017-yil umumta’lim va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi tizimida tub islohotlar yili bo‘ldi. Xalq qabulxonalarini va Prezidentning virtual qabulxonasiga tushgan taklif va mulohazalar, shuningdek, respublika maktablaridagi bitiruvchilarning ota-onalari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnama natijalaridan kelib chiqib, Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 9+3, ya’ni 12-yillik majburiy ta’limdan 11-yillik ta’limga qaytildi.

Kasb-hunar ta’limi yuzasidan avvalgi yillardagi tajribani tanqidiy tahlili natijasida respublikada 2020-yildan boshlab yangi professional ta’lim tizimi tarmog‘i faoliyat boshlaydi. Shu yili mehnat bozoridagi kadrlarga bo‘lgan real ehtiyojlarni o‘rganish asosida 630 ta professional ta’lim muassasiga (340 ta kasb-hunar maktabi, 143 ta kollej, 147 ta texnikum) 210 ming nafarga yaqin o‘quvchilar qabul qilinadi.

So‘nggi yillarda oliy ta’lim tizimini zamon talablarida asosida isloh qilish jadallahdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham oliy ta’lim tizimida tahsil olish uchun teng imkoniyat yaratishga oid ishlarni takomillashtirish, mamlakatimizda bitiruvchilarni oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasini oshirish, oliy o‘quv yurtlari nufuzini yuksaltirish, sohaga yuqori malakali kadrlarni jalb etish va raqobatni kuchaytirish zarurligiga alohida e’tibor qaratgan edi.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ko‘zda tutilgan zamonaviy talablar va ilg‘or xorijiy tajribalarni tatbiq qilish asosida yuqori malakali mutaxassislar, pedagog va ilmiy kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga yo‘naltirilgan vazifalar ijrosiga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

O‘zbekistonda oliv ta’lim sohasida kechayotgan tub o‘zgarishlar jarayoni ota-onalar, o‘qishga ishtiyoqi baland bo‘lgan yoshlar, keng ma’rifiy jamoatchilikning fikri, taklif va mulohazalari asosida amalga oshirilayotgani e‘tiborga molikdir. Yoshlarni oliv ta’limga yanada kengroq qamrab olish maqsadida oliv ta’lim muassasalariga talabalar qabul kvotalari oshirilmoqda. Yangi yo‘nalishlar va mutaxassisliklar bo‘yicha kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yilmoqda, yangi oliv ta’lim muassasalari hamda xorijiy davlatlardagi nufuzli universitetlar filiallari tashkil etilmoqda.

2018/2019 o‘quv yilida oliv ta’lim muassasalarida kunduzgi ta’lim shakli bo‘yicha qabul kvotalarining ortganligi bilan bir qatorda, 51 oliv ta’lim muassasasida sirtqi ta’lim, 22 oliv ta’lim muassasasida maxsus sirtqi ta’lim va 9 oliv ta’lim muassasasida kechki ta’lim shakllari bo‘yicha oliv ma’lumotli kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. 2019-yilda respublikada jami 14 ta yangi oily ta’lim muassasasi (6 ta mahalliy oliv ta’lim muassasasining filiali va 8 ta xorijiy oliv ta’lim muassasasining filiali) tashkil etildi.

Jumladan, 2016/2017 o‘quv yilida 15 ta’lim yo‘nalishi va 14 mutaxassislik, 2017/2018 o‘quv yilida 8 ta’lim yo‘nalishi va 10 mutaxassislik bo‘yicha kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2018/2019 o‘quv yilida bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha 66 tani, magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha 48 tani tashkil etdi. 2019-yilda jami talabalar soni 423 mingdan oshdi (natijada yoshlarning oliv ta’lim bilan qamrovi taxminan 20 foizga yetkazildi). Bu ko‘rsatkich 2016/2017 o‘quv yilida 264095 nafarni, 2017/2018 o‘quv yilida 279674 nafarni tashkil etgan edi.

Talabalar sonining oshishi, o‘z navbatida, professor-o‘qituvchilar sonining ham ortishini taqozo etmoqda. Mamlakatimiz oliv ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituvchilar 2016/2017 o‘quv yilida 23368 nafar, 2017/2018 o‘quv yilida 24904 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, 2018/2019 o‘quv yilida professor-o‘qituvchilar soni 25418 nafarga yetdi hamda 2019/2020 o‘quv yilida esa 29 ming nafardan oshdi. “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali 2019-yilda xorijda malaka oshirish, stajirovka, magistratura va doktorantura 517 nafar professor-o‘qituvchilar va xodimlar saralab olinib, 2019-yil oxiridagi ma’lumotlariga ko‘ra 218 nafari xorijga yuborildi.

2018/2019 o‘quv yilidan boshlab 55 oliv ta’lim muassasasida 21 ta xorijiy davlatning oliv ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda qo‘shma ta’lim dasturi asosida kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Hozirgi kunda qo‘shma ta’lim dasturi asosida jami 1130 nafar talaba tahsil olmoqda. Jumladan, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU va Belorus Respublikasining oliv ta’lim muassasasi – BGUIR bilan hamkorlikda qo‘shma ta’lim dasturi asosida kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, 2018/2019 o‘quv yilidan boshlab Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATUda respublika OTM ichida birinchilardan bo‘lib kredit tizimiga o‘tildi.

2017-yil fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ilmiy kadrlarni tayyorlashning ikki bosqichli tizimiga o‘tish to‘g‘risidagi Farmoni qabul qilindi va unga ko‘ra ikki bosqichli tizim: falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) tashkil etildi. Tayanch doktoranturaga qabul kvotasi ikki barobar oshdi. Dissertatsiyani ko‘rib chiqish tartibi soddalashtirildi. Ilmiy ishlar himoyasi 2017-yilda 2016-yil bilan solishtirganda 2 martaga va 2018-yilning yarim yil natijalari bo‘yicha 2,5 marta ko‘paydi. So‘nggi ikki yilda 1551 ta ilmiy ish himoya qilindi va ilmiy salohiyat 36,7% ga yetkazildi (2019-yil ma’lumoti). 2019- yilga kelib oliv ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining ish haqi miqdori o‘rtacha 2,5 barobarga oshirildi.

4.Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, bularning barchasi mamlakatimizda oliv ta’limni davr talabi, ijtimoiy-iqtisodiy soha talabidan kelib chiqqan holda isloh etish, yoshlarning oliv ta’limga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, yurtimizni jadal ravnaq toptirish yuzasidan amalga oshirilayotgan ezgu ishlarning yorqin ifodasidir.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olujjanob xalqimiz bilan birga kuramiz. Toshkent: O'zbekiston, 2017.// Мирзиёев Ш.М. Мы построим наше великое будущее вместе с нашим смелым и благородным народом. Ташкент: Узбекистан, 2017.// Mirziyoev SH.M. We see our great future together with our brave and noble people. Tashkent: Uzbekistan, 2017.
2. Мирзиёев Ш.М. Свободное, демократическое и процветающее государство Узбекистан мы построим вместе с нашим мужественным и благородным народом. // Народное слово. 2016. 15 декабря. (Mirziyoev Sh.M. We will build a free, democratic and prosperous state of Uzbekistan together with our courageous and noble people. // Folk word. 2016. December 15.)
3. Мирзиёев Ш.М. Достижения науки – важный фактор развития.// Народное слово. 2016. 31 декабря. (Mirziyoev Sh.M. Achievements of science - an important factor in development.// Narodnoe slovo. December 31, 2016)
4. Karimov I.A. «Tarixiy xotirasiz keljak yo'q». T.: Sharq, 1998. (Karimov I.A.// Каримов И.А. «Без исторической памяти нет будущего». Т.: Шарк, 1998. (Каримов И.А. "There is no future without historical memory." T.: Sharq, 1998.
5. Abdunabiev A.G. "Ilm egallash ibrati T.2006.// Абдуналиев А.Г. «Наука и перевод T.2006.//(Abdunabiev A.G. "Example of acquisition of knowledge T.2006
6. Abdunabiev A.G.'Markaziy Osiyoda yuyz bergan uyg'onish (renessans). Ajdodlarimizning jaxon sivilizasiyasiga qo'shgan xissasi.T.1998. // Абдуналиев А.Г. Ренессанс в Средней Азии. Вклад наших предков в мировую цивилизацию. Т. 1998. //Abdunabiev AG The Renaissance in Central Asia. The contribution of our ancestors to world civilization. T.1998.
7. Abdunabiev A.G., Shirinova F.N., Yusupova G.V."Toshkntning mo'tabar kishilari. T.2008.// Абдуналиев А.Г., Ширинова Ф.Н., Юсупова Г.В. «Уважаемые люди Ташкента». Т. 2008 г.// Abdunabiev AG, Shirinova FN, Yusupova GV "Distinguished people of Tashkent. T.2008.
8. Ziyaeva D.S. "Ajdodlarimizning jaxon sivilizasiyasiga qo'shgan xissasi."O'quv-yislubiy qo'llanma. 2014// Зияева Д.С. «Вклад наших предков в мировую цивилизацию.» Учебное пособие. 2014 //Ziyaeva D.S. "The contribution of our ancestors to world civilization." Textbook. 2014
9. Yunusova X.E. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va ma'naviy jarayonlar (XX asr 80-yillari misolida). Т., Abu matbuot-konsalt, 2009. // Юнусова Х.Э. Межэтнические отношения и духовные процессы в Узбекистане (на примере 80-х годов XX века). Т., Абу пресс-консалт, 2009.// Yunusova H.E. Interethnic relations and spiritual processes in Uzbekistan (as an example of the 80s of the 20th century). Т., Abu press-consult, 2009.
10. O'zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O'zbekiston tarixi. T.: Sharq, 2000.// Новая история Узбекистана. Третья книга. История независимого Узбекистана. Т.: Шарк, 2000.// New history of Uzbekistan. The third book. History of independent Uzbekistan. Т.: Sharq, 2000.
11. "Xalq so'zi" gazetasi – www.info XS.uz (People's Word newspaper)
12. "Turkiston" gazetasi – www.turkiston.sarkor.uz (Turkiston newspaper)
13. "Ma'rifat" jurnali – www.ma'rifat-inform (Ma'rifat "magazine")
14. "Moziydan sado" jurnali – www.moziy.dostlink.net (Magazine "Maziydan sado")
15. www.ZiyoNet.uz

ЎТМИШГА НАЗАР

6 ЖИЛД, 2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 6, НОМЕР 2

LOOK TO THE PAST

VOLUME 6, ISSUE 2

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000